



## THE CRIMINAL LAW NATURE OF EXEMPTION FROM PUNISHMENT BASED ON PERSONAL CIRCUMSTANCES

Zhamalova Yulduz Tairovna

Master's student of Karakalpak State University, Nukus, Uzbekistan.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877770>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 27<sup>th</sup> April 2026

Online: 28<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

Exemption from punishment, personal circumstances, criminal law, conditional sentencing, parole, replacement of punishment with a lighter one, social danger, repentance, principle of humanism, judicial practice.

### ABSTRACT

*This article provides a scientific analysis of the criminal law nature of exemption from punishment based on personal circumstances. The types of this institution, its legal grounds, and conditions for application are comprehensively examined. In particular, such grounds as the loss of social danger of the individual, sincere repentance, conditional sentencing, parole (early conditional release), replacement of punishment with a lighter one, as well as exemption from punishment due to illness or loss of working capacity are analyzed.*

*The article also highlights the relationship of this institution with the principles of humanism and justice and proposes solutions to problems arising in judicial practice.*

## УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ НАКАЗАНИЯ ПО ОБСТОЯТЕЛЬСТВАМ, СВЯЗАННЫМ С ЛИЧНОСТЬЮ

Жамалова Юлдуз Тайировна

Магистрант Каракалпакского государственного университета, Нукус, Узбекистан.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877770>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 27<sup>th</sup> April 2026

Online: 28<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

Освобождение от наказания, обстоятельства, связанные с личностью, уголовное право, условное осуждение, условно-досрочное освобождение, замена наказания более мягким, общественная

### ABSTRACT

*В данной статье научно проанализирована уголовно-правовая природа освобождения от наказания по обстоятельствам, связанным с личностью. Рассмотрены виды института освобождения от наказания, его правовые основания и условия применения. В частности, исследованы такие основания, как утрата общественной опасности личности, искреннее раскаяние, условное осуждение, условно-досрочное освобождение, замена наказания более мягким, а также освобождение от наказания в связи с заболеванием или утратой трудоспособности. Кроме того, раскрыта взаимосвязь данного института с принципами гуманизма и*



опасность, раскаяние,  
принцип гуманизма,  
судебная практика.

справедливости, а также предложены пути решения  
проблем, возникающих в правоприменительной  
практике.

## SHAXSGA BOG'LIQ HOLATLARGA KO'RA JAZODAN OZOD QILISHNING JINOYAT-HUQUQIY TABIATI

Jamalova Yulduz Tayirovna

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti, Nukus, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19877770>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 27<sup>th</sup> April 2026

Online: 28<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

Jazodan ozod qilish,  
shaxsga bog'liq holatlar,  
jinoyat huquqi, shartli  
hukm, muddatidan ilgari  
shartli ozod qilish, jazoni  
yengilrog'i bilan  
almashtirish, ijtimoiy  
xavflilik, pushaymonlik,  
insonparvarlik tamoyili,  
sud amaliyoti.

### ABSTRACT

Mazkur maqolada shaxsga bog'liq holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning jinoyat-huquqiy tabiati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda jazodan ozod qilish institutining turlari, huquqiy asoslari hamda ularni qo'llash shartlari kompleks o'rganilgan. Xususan, shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi, shartli hukm qilish, muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish hamda kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq holatlar tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur institutning insonparvarlik va adolat tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi yoritilib, amaliyotdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

### KIRISH

Jazodan ozod qilishni turlarga ajratish uning huquqi tabiatini, mavjud jinoiy-huquqiy belgilarini, ijtimoiy jihatdan tayinlanish xususiyatlarini kompleks qayta ko'rib chiqish uchun zarur. Bundan tashqari, jazodan ozod qilish institutining qo'llanilishi jinoiy repressiyani iqtisod qilish, insonparvarlik va adolat prinsiplarini qo'llash, har bir jinoyat uchun jazoning muqarrarligi prinsipi bo'lishiga qaramay jazo qo'llash maqsadga muvofiq emasligidan kelib chiqadi.

Qayd etilganidek shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra jazodan ozod qilishning asoslari shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK

70-m.); aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-m.); shartli hukm qilish (JK 72-m.); jazoni o'tashdan muddatidan oldin shartli ozod qilish; (73-m.) jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-m.); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-m.) kiradi.

**Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish.** Jinoyat qonunidagi javobgarlikning muqarrarlik prinsipi har doim ham jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo qo'llanilishi shart va zarurligini anglatmaydi. Shaxsning yoki qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan hollarda sudlar tomonidan jinoyat ishini ko'rib



chiqishda uni jazodan ozod qilish imkoniyati mavjud bo'lishi mumkin.

Biroq, Ya.V.Lobov, P.V.Korobov singari ayrim olimlar jazodan ozod qilish institutini bu tarzda tasniflashini tanqid qilishadi. Ularga ko'ra jinoyat qonunchiligidagi jazodan ozod qilish institutini nazarda tutuvchi bobda qonun chiqaruvchi yangilashgan, ya'ni ushbu bobda faqat jazodan ozod qilish emas, balki jazoni o'tashdan ozod qilish hamda bir turdagi jinoiy jazoni boshqa turdagi yengilroq jinoiy jazoga almashtirish instituti ham aralash tarzda bayon qilingan. Milliy huquqshunos olimlar esa bu tushunchalarni o'zaro farqlamaydi, aksincha Jinoyat kodeksida jazodan ozod qilishning har xil turlarini nazarda tutilganligi asosli va jinoyat qonunining insonparvarlik prinsipiga (7-modda) to'la muvofiq keladi, deb hisoblashadi.

Shuningdek, M.Rustambayev jazodan ozod qilish davlatning jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan shaxsга jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va shartlar mavjud bo'lgan holda jazoni tayinlashdan yoki jazoni ijro etishdan voz kechishidir, deb ta'kidlab jazoni tayinlashdan voz kechishni sanab o'tsa-da, ularni bitta tushuncha – jazodan ozod qilish jumlasiga kiritadi.

Jinoyat qonuni, shuningdek jazodan ozod qilish mahkumning sudlanganligining huquqiy oqibatlarini ham bartaraf etishini belgilaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 77-moddasining ikkinchi qismida sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanishi mustahkamlangan. Biroq, ayni qoida jazodan ozod qilishning aynan qaysi turiga muvofiqligi aniqlashtirilmagan.

Boshqacha aytganda jazodan ozod qilish va jazoni boshqa yengilroq jazoga almashtirish ham jazodan ozod qilish hisoblanar ekan, Jinoyat kodeksi 77-moddasida belgilangan qoidani qo'llash munozarali holatni keltirib chiqaradi. Agar mazkur qoidani faqatgina amanistiya akti yoki afv etish tartibida jazodan ozod qilishga nisbatan qo'llanilishini nazarda tutadigan bo'lsak, boshqa turdagi jazodan ozod qilish turlarini tasniflash zarurati mavjudligi ko'rinadi.

Qayd etilganiday, Jinoyat kodeksi 65 va 70-moddalarida shaxsni jinoiy javobgarlikdan va jinoiy jazodan ozod etilishiga oid jinoyat-huquqiy asoslar deyarli bir xil ekanligi, ular o'zaro bir-birini to'ldirib turishi nuqtai nazaridan nafaqat shaxsning, balki qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi ham shaxsni jazodan ozod qilinishiga xizmat qilishi aniqlashtirilishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko'ra Jinoyat kodeksi 70-moddasiga quyidagi mazmundagi o'zgartirish kiritish taklif etiladi:

**“70-modda. Shaxsning yoki qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish**

Jinoyat sodir etgan shaxs agar hukm chiqariladigan vaqtga kelib sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa yoxud qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan qonun qabul qilinsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.

Jazoni ijro etish vaqtida ham qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan



qonun qabul qilinsa, sud mahkumni jazodan ozod qiladi”.

**Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish.** 1994-yildagi Jinoyat kodeksining javobgarlikdan va jazodan ozod qilish turlariga bag'ishlangan bo'limini ishlab chiqishda, jinoyat huquqi ushbu institutining ilm-fan va amaliyotda aniqlangan barcha afzallik va kamchiliklari hisobga olingan, shu sababli ularning umumiy soni keskin qisqartirilgan, bir-birini takrorlayotgan ozod qilish turlari chiqarib tashlangan. Ushbu bo'limda jazodan ozod qilishning an'anaviy turlari bilan birga jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishning yangi turlari nazarda tutilgan. Xususan, differentsiyalashgan yondashuv zaruratidan kelib chiqqan holda, fanning jinoyat sodir etgan shaxslarning qilmishidan keyingi ijobiy xulqini rag'batlantirishga oid takliflari amalga oshirilgan. Masalan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, sud shaxsni javobgarlikdan ozod qilishi mumkin. Shu kabi 1994-yildagi milliy jinoyat qonuniga yangi kiritilgan jazodan ozod qilishning turlaridan biri aybdorning chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish jinoyat qonunining 71-moddasida belgilangan.

Jinoyat kodeksi 71-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish, qo'llanish asoslari va shartlari bo'yicha, 66-moddada nazarda tutilgan

aybdorning o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan uni javobgarlikdan ozod qilish bilan o'zaro mos keladi. Asosiy farq ularni qo'llash mumkin bo'lishi uchun yetarli bo'lgan shartlarning hajmida namoyon bo'ladi. Shaxsni Jinoyat kodeksi 66-moddasida belgilangan tartibda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi, yetkazilgan zararni bartaraf qilishi, jinoyatni ochilishiga faol yordam berishi zarur.

Jinoyat kodeksining 71-moddasida nazarda tutilgan jazodan ozod qilishni qo'llashda esa atigi ikki holat, ya'ni o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish va yetkazilgan zararni bartaraf qilish kifoyadir.

Boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok qilgan yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a'zosi bo'lgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam bergan bo'lsa, basharti u og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo'lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin.

**Shartli hukm qilish.** Shartli hukm qilish (Jinoyat kodeksi 72-moddasi) aybdorni jazodan ozod qilishning alohida shakli sifatida milliy jinoyat qonunida belgilangan. Shartli hukm qilish tushunchasi, mazmun-mohiyati nisbatan yondashuvlar turlicha, shunga ko'ra mazkur chorani ijro etish mexanizmi ham turlicha amalga oshiriladi. Masalan,



shartli hukm qilish jazoni ijro etishni kechiktirish deb e'tirof etiladigan bo'lsa, uni amalga oshirish masalalari jinoyat-protsessual qonuni bilan tartibga solinishi lozim.

B.V.Zdravomislov "shartli hukm qilish" tushunchasi mazmunini ochib beradigan yagona universal qarash mavjud emasligini o'rinli qayd etadi. Shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasida shartli hukm qilish jazoni ijro etishni kechiktirish, jazo qo'llashning alohida tartibi, jinoyat-huquqiy chora, jazo turi, jazodan ozod qilish turi, jazoni o'tashning alohida tartibi va boshqa shakllarda tushuniladi.

Ma'lumki, sud ayblov hukmini chiqarayotganda aybdor shaxs "shartli" hukm qilinmaydi, qoida tariqasida, doim hukm e'lon qilinib jazo tayinlanadi. Shundan so'ng mahkumga nisbatan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqariladi. Bunda uning shartli hukm qilish mohiyati sudning ayblov hukmini chiqarib mahkumga muayyan jazo turini tayinlash va uning hajmini belgilash, biroq tayinlangan jazoni shartli hisoblashida ifodalanadi.

S.F.Milyukov fikriga ko'ra, shartli hukm qilish yuridik jihatdan jazodan ozod qilishning bir turi hisoblangan holda, tobora real jazoga aylanib bormoqda, chunki u rasmiy statistikada jazo turlari bilan bir qatorda ko'rsatiladi. Darhaqiqat, jazo singari, shartli hukm qilish ham faqat sud hukmiga binoan tayinlanadigan va jazoga xos bo'lgan muayyan huquqiy cheklashlar, masalan, sudlanganlik holati bilan bog'liq davlat majburlovi chorasi hisoblanadi. Shartli hukm qilishni qo'llash jazo bilan ayni bir maqsadni ko'zlaydi.

Yu.A.Burkanov fikriga ko'ra, "jazoda huquqiy cheklashlar majmui bevosita xususiyat kasb etadi, shartli hukm qilishda esa u, birinchi navbatda, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish bilan almashtirilgan, jazo unsuri esa potentsial xususiyatga ega, chunki u mahkum jazoni o'tashdan ozod qilish shartlarini buzgan holda amalga kiradi va qoida emas, balki istisno holat hisoblanadi".

Aksariyat huquqshunoslar shartli hukm qilish – bu jazoni real o'tashdan shartli ravishda ozod qilish, degan nuqtai nazarga qo'shiladi. Tahlil qilinayotgan institutni bunday tushunish uning mohiyatini to'g'riroq yoritish imkonini beradi, chunki, konundan anglashilishicha, sud O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 72-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan choralardan birini tayinlagach, mahkum jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini tuzatish mumkin, degan xulosaga kelishi lozim va bu holda u tayinlangan jazoni shartli deb hisoblash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Bunda shartli hukm qilishni qo'llash asoslarini tahlil qilish ham maqsadga muvofiq. Jinoyat qonuniga ko'ra agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin.

**Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish.** Hammavaqt



ham jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo tayinlash orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish o'zini oqlamaydi. Jinoyat qonunida rag'batlantiruvchi normalarning mavjudligi jinoyat sodir qilgan shaxsni jazodan ozod qilishda differensiyalash zaruratini tug'dirishga xizmat qiluvchi insonparvarlik va odillik prinsiplarining o'zaro hamohangligini aks ettiradi. Biroq, jinoyat va jazo o'rtasidagi "oltin o'rtalik"ka doim ham erishib bo'lmaydi, ba'zan shaxsni jinoiy jazodan ozod qilishda mazkur prinsiplar o'zining amaliy ifodasini topadi.

Sud amaliyoti shuni ko'rsatadiki jinoyat sodir etgan shaxsga, albatta, har doim ham jinoiy jazo tayinlanishi hamda ushbu jazoni to'liq o'tashi lozim emas. Ammo, shaxsga nisbatan jinoiy jazodan ozod qilishning u yoki bu turini qo'llash jazoni tayinlashdan ko'zlangan maqsadga erishilganlik muhim ahamiyatga ega.

Jinoiy jazodan ozod qilishda sudlangan shaxs jazoni real ijro etishdan ozod etilibgina qolmasdan, ba'zan boshqa jinoyat huquqiy oqibatlardan ham ozod etilishi mumkin.

Shu jihati bilan jazodan ozod qilish instituti insonparvarlik prinsipini o'zida namoyon etsada, amnistiya akti asosida jazodan ozod qilish sudning huquqni muhofaza qilish organi sifatidagi reputatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham munozara qilinadi.

Nazarimizda sudning asosiy vazifasi aybdorga jazo tayinlashda ifodalanadigan jazolovchi organ sifatida namoyon etilishi maqsadga muvofiq emas, aksincha sud adolat va odillik ramzi, shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi bilan o'zi

tayinlagan jazoning maqsadiga erishilishidan manfaatdor organ hamdir. Shu jihatga ko'ra jazodan ozod qilish instituti insonparvarlik prinsipini namoyon etadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (Jinoyat kodeksi 73-modda) sudlar tomonidan nisbatan ko'p qo'llaniladigan jazodan ozod qilish instituti instrumentlaridan biri sanaladi.

Xususan, 2022-yilda 27.642 ta, 2023-yilda 34.228 ta jazodan shartli ozod qilishga oid taqdimnomalar sudlar tomonidan ko'rib tamomlangan bo'lsa, shundan 2022-yilda 26.753 tasi, 2023-yilda 33612 tasi qanoatlantirilib, shuncha nafar shaxs jazodan shartli ravishda ozod qilingan.

Qonun chiqaruvchi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi, shuningdek shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkinligini nazarda tutgan. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mazkur turi huquqning o'zaro uzviy bog'liq uch sohasi – jinoyat, jinoyat-ijroiya, jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Qayd etilganidek, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod etish sud amaliyotida eng keng qo'llanadigan jazodan ozod qilish turi bo'lib, tadqiqotlar jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish aksariyat hollarda axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan va muayyan huquqdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilganini ko'rsatadi. Lekin, hamma olimlar ham axloq tuzatish



ishlari, xizmat bo'yicha cheklash jazolariga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblashmaydi.

M.X.Rustambayev jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – sudlanuvchining jazoning o'talmagan vaqti mobaynida unga sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi hamda ijtimoiy tartibni saqlash va yangi jinoyatni sodir etmaslik sharti bilan jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilishdir”, deb tushuntiradi. Biroq, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni mahkum tomonidan sinov muddati davomida qonunda belgilangan talablar bajarilgan taqdirda jazoni o'tashni muddatidan oldin to'xtatishini tushuniladi. Shuningdek, muddatidan ilgari shartli ozod qilishni jazodan ozod qilishning xususiy va shartli turi sifatida ham e'tirof etiladi.

**Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish.** Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llash asoslari xususida so'z yuritganda jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari va qo'llash shartlari deganda uni qo'llash uchun qanday holatlar mavjud bo'lishi va kim tomonidan, qancha muddatlarda amalga oshirilishi tushuniladi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash shartlari va tartibi quyidagi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74-moddasi va 90-moddasi (voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish);
- 2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksining 536-moddasi

3) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya Kodeksining si;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari.

Jinoyat kodeksining 74-moddasida belgilangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash shartlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu shartlarni quyidagi to'rt guruhga ajratishimiz mumkin:

– almashtiriladigan jazo bilan bog'liq shartlar;

– mahkumning xulq-atvori bilan bog'liq bilan shartlar;

– jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun jazoning o'talishi bilan bog'liq bo'lgan muddatlar;

– jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llaniladigan mahkumlar toifalariga qo'yilgan talablar.

Ushbu to'rtta shartning bir vaqtda va belgilangan me'yorlarda bo'lishi jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga asos bo'ladi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda mahkumga tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismi ulardan yengilroq bo'lgan boshqa jinoiy jazolarga almashtirilishi mumkin. Bu qoidaga asosan faqat ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolarining o'talmay qolgan qismigina almashtiriladi. Ulardan boshqa jazolar almashtirilishi mumkin emas. Ushbu ikki jazo turining o'talmay qolgan qismi ulardan yengilroq bo'lgan boshqa jazolarga almashtiriladi. Ularndan yengilroq bo'lgan boshqa jazolarni aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-moddasini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Ushbu moddada jazo tizimi belgilangan bo'lib, unda jinoiy



jazolar yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan.

Ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash va axloq tuzatish ishlari kabi jazolar Jinoyat kodeksi 43-moddasida nazarda tutilgan boshqa yengilroq jazolarga almashtirishni nazarda tutadi. Jinoyat kodeksi 43-moddasi mazmunidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash va axloq tuzatish ishlariga nisbatan almashtirish mumkin bo'lgan yengilroq jazolar deb, qonun chiqaruvchi tomonidan quyiroqda joylashtirilgan jazolar tan olinadi.

"Jinoiy jazoning adolat va qonuniylik kafolati bo'lib, o'talغان muddatlarni to'g'ri hisoblash va ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismini yengilrog'i bilan almashtirish mahkumning oldingi holati bilan solishtirganda yomonlashtirmasligi hisoblanadi.

Har qanday holatda ham yengilroq jazoni muddati qonun bilan o'rnatilgan yuqori chegarasidan oshib ketmasligi kerak. Jarimaning miqdorini esa o'talmay qolgan qism doirasida ushlab qolingani umumiy miqdordan kelib chiqib belgilanishi zarur".

Jinoyat qonunchiligida jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi belgilangan bo'lsada, lekin qonun chiqaruvchi o'talmay qolgan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish natijasida belgilanadigan jazo aynan qancha miqdorda va qancha muddatda, ya'ni ushbu jazoning aniq me'yorini belgilab bermagan. Shuning uchun bu borada ikki xil sharhlanishiga olib kelishi mumkin. Birinchisi, ozodlikdan mahrum

qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismi aynan shu muddatga teng bo'lgan muddatda boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Ikkinchisi esa ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlarining boshqa jazolarga nisbatan Jinoyat kodeksida belgilangan qancha miqdori boshqa jazolarning qancha miqdoriga to'g'ri kelishini hisoblab chiqib ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismiga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Masalan, M.X.Rustambayev axloq tuzatish ishlariga yengilroq jazo tariqasida jarima va muayyan huquqdan mahrum qilish bilan almashtirish mumkin deb hisoblasa, yuridik fanlar doktori, professor Q.Mirzajanov axloq tuzatish ishlariga yengilroq jazo tariqasida faqat jarimani almashtirish mumkin deb hisoblaydi. "Axloq tuzatish ishlari yengilroq jazo bilan almashtirilganida ularni faqat jarima bilan almashtirish mumkin, chunki Jinoyat kodeksining 43-moddasida muddat bilan bog'liq boshqa yengilroq jazo yo'q. Axloq tuzatish ishlarining o'talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish Jinoyat kodeksi 44-moddasining uchinchi qismida belgilangan qoidaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda axloq tuzatish ishlarining bir oyi bazaviy hisoblash miqdorining o'n olti baravariga mos keluvchi jarima summasiga to'g'ri kelishidan kelib chiqiladi".

Amaliyotda muammolarni oldini olish uchun, Jinoyat kodeksi 46-moddasi 2-qismini "**mazkur Kodeksning 74-moddasiga asosan jazo yengilrog'iga almashtirilganda bundan mustasno**" va 86-moddasi 1-



qismini “Jinoyat kodeksi 90-moddasiga asosan jazo yengilrogi bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari muddati bir yildan ortiq bo‘lishi mumkin”, degan so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarorining 18-bandiga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish kiritish taklif etiladi:

***Jinoyat kodeksi 73, 74, 89, 90-moddalariga asosan jazodan ozod bo‘lgan shaxslar tomonidan jazoning o‘talmay qolgan muddati davomida sodir qilgan jinoyati uchun ularga nisbatan Jinoyat kodeksi 60-moddasi tartibida jazo tayinlanganda axloq tuzatish ishlari jazosi mudatta uch yildan, voyaga yetmaganlarga nisbatan esa bir yildan ortiq bo‘lishi mumkin.***

**Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 26-moddasida hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Shu jihatdan ham jinoiy jazoga hukm qilingan shaxsning kasallikka chalinishi ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolarni o‘tashiga sezilarli darajada mone‘lik qiladi. SHu sababdan kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish milliy jinoyat qonunchiligida jazodan ozod qilishning bir turi sifatida

belgilangan. Unga ko‘ra hukm chiqarilganidan keyin o‘z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs, shuningdek jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan boshqa og‘ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o‘tashdan ozod qilinishi lozim. Bu toifadagi shaxslarga nisbatan sud tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashi mumkin.

Bu turdagi jinoiy jazodan ozod qilish jazoni ijro etishda insonparvarlik prinsipi namoyon bo‘lishi shakli sifatida namoyon bo‘lib, jazodan ko‘zlangan maqsadga erishishnin imkoni bo‘lmagan hollarda jazodan ozod qilishda ifodalanadi.

M.H.Rustambayev kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilishni jazodan ozod qilishning aralash turiga mansub, deb hisoblaydi.

M.Usmonaliyev esa jazodan ozod qilishning mazkur turini sud tomonidan tayinlangan jazoning o‘talmagan qismidan ozod qilish turi sifatida qayd etadi.

Boshqa mualliflar kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotishi oqibatida jazodan ozod qilish shaxsga bog‘liq holatlarga ko‘ra jazodan ozod qilish deb tushuntiradi.

Yuridik adabiyotlarda kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish jazodan ozod qilishning shartsiz turiga mansub. Bu qarashga qarama-qarshi fikr tarafdorlari agar shaxs kasallikdan tuzalsa va jazoni o‘tash muddatlari o‘tib ketmagan bo‘lsa u jinoiy jazoni o‘tashni davom ettirishiga oid qoida mavjudligi sababli shartli turga



mansub jazodan ozod qilish sifatida baholaydi.

Jinoyat qonunining 7-moddasiga ko'ra jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Shu sababdan ham hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxs,

shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxs jazoni o'tashdan ozod qilinishi belgilangan.

Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak.

### References:

1. Criminal Act of South Korea. Act No. 293, Sep 18, 1953. <https://www.oecd.org>
2. German Criminal Code <https://ec.europa.eu>
3. Introduction to criminal justice. D.J. Newman, P.R. Anderson. - New York, 2019. - P.356.
4. Jinoyat huquqi Umumiy qism: Darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr) / R.Kabulov, A.A. Otajonov va boshq. -Toshkent: IIV Akademiysi, 2012. -B.379.
5. Jumaniyozova, Nuriya (2021) "Stages of legal discourse development in linguistics," *Philology Matters: Vol. 2021 : Iss. 3 , Article 7.*
6. Kabulov R., Otajonov A.A. va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. -T.: O'zbekiston Respublikasining IIV Akademiyasi, 2012.-B.374.
7. League of Arab States, Riyadh Arab Agreement for Judicial Cooperation, 6 April 1983, [Electronic resource]:<http://www.refworld.org/>